



BUXORO VILOYATIDA NOAN'ANAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Jalilova Charos Zarifovna

Ilmiy rahbar, BuxDPI Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Samadova Sabina Sanjar qizi

BuxDPI 4-kurs 1GIQ-21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatida noan'anaviy turizmni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Maqola noan'anaviy turizm, xususan, qishloq turizmi, agroturizm, jaylou turizmi, kinoturizm, festival (karnaval) turizmi, gastronomik turizm, ekologik turizm, diniy turizm, davolash turizmi, industrial turizm, rekords-turizm va boshqalarning rivojlanishini o'ragnishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: noan'anaviy turizm, qishloq turizmi, agroturizm, jaylou turizmi, kinoturizm, festival (karnaval) turizmi, gastronomik turizm, ekologik turizm, diniy turizm, davolash turizmi, industrial turizm, rekords-turizm.

O'zbekiston tabiati, jumladan, relyefi, iqlimi, hayvonot va o'simlik dunyosining o'ziga xosligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra turizmni rivojlantirish uchun boy turistik resurslarga va ularni yanada rivojlantirishning potentsial yo'nalishlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan mamlakatda turizmni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi [1].



Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil mart oyida Buxoroga safari chog'ida mamlakatda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif qildi va bu borada o'zining tavsiyalarini bildirdi. Ushbu safar chog'ida Prezidentimiz turizmni iqtisodiyotning muhim, strategik tarmog'i sifatida ko'rsatib o'tdi. Bunda turizmni mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning qudratli mexanizmiga aylantirish, mamlakat mintaqalarining turistik salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, aholining turmushi darajasi va sifatini oshirishdagi rolini ko'paytirishga urg'u berishni ta'kidlab o'tdi.

Ma'lumki, turizm sohasida noan'anaviy turizm turlari deganda qishloq turizmi, agroturizm, jaylou turizmi, kinoturizm, festival (karnaval) turizmi, gastronomik turizm, ekologik turizm, diniy turizm, davolash turizmi, industrial turizm, rekords-turizm va boshqalar tushuniladi [2].

Buxoro viloyatining tabiiy-iqlimiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlari yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning deyarli barchasida imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda [3]. Keling, yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha Buxoro viloyati va unga yaqin hududlarning potentsial imkoniyatlarini ko'rib chiqaylik:

Qishloq turizmi. Bu agroturizmdan farq qilgan holda asosan turistlarning qishloq sharoitida dam olib, hordiq chiqarishlari tashkil etilganligidir. Tongda xo'rozning qichqirig'i bilan uyg'onish, sigirdan toza sutni sog'ib olgan holda ichish, bog'dan sarxil mevani, egatdan hidi anqib turgan qovun-tarvuzni uzib eyishning zavqi o'zgacha. Bu holat ko'pgina turistlarning qiziqishlarini tortadi. Kundalik hayotning tashvishlaridan, ish, osmono'par binolardan charchagan odam, telefonlarni o'chirib, chavondozlik, asalari yoki gullar parvarishi kabi faoliyat bilan shaxsan o'z tajribasida shug'ullanib ko'rishni xohlaydi. Viloyatning barcha hududlarida bunday yo'nalishni tashkil qilish mumkin. Jahon tajribasida bunga misollar juda ko'p: Avstraliyada go'sht yetishtirish fermalari ish faoliyati bilan tanishish, Toskaniyada chavondozlik fermalari orqali otda yurishni amalda sinab



ko'rish, Isroilda baliq ovlash va asalarichilik bilan shug'ullanishni tajriba qilib ko'rish kabilar mahalliy agroturizmning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, Buxoroda agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari respublikaning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha kengdir. Ayniqsa, Vobkent tumani bog'larining sarxil mevalari, Jondor tumani (Moxonko'l, Varaxsha) qovunlari, Zarmiton qatig'i, Romitan tumani (Qo'rg'on, Xazorbog') anjiri, uzumlari, Buxoro tumani (Sohibkor, G'urbin) anorlari, Qorako'l tumani (Zamonbobo) da baliq ovlash va hakoza mahalliy va xorijiy turistlarning qiziqishlarini oshirishi tayin [5].

Jaylou (yaylov) turizmi. Ushbu yo'nalishning bunday nomlanishiga sabab, uning vatani – Qirg'izistonda tog' yaylovlariga safarlarni uyushtirish, tog' landshafti, relefi bilan tanishtirish natijasida yuzaga kelgan. Xalqaro tajribada odam oyog'i yetmagan joylar – Shimoliy Amerika va Sibir o'rmonlari, Amazonka junglilari va Afrika qo'riqxonalar kabi hududlarda stivilizastiyadan olisda dam olishni xoxlovchilar talaygina. Yurtimizda bu yo'nalishda cho'l hududlari salohiyatidan foydalanish mumkin. Quljuqtog' etaklari, Kampirakqum, Sandiqliqum cho'llari tabiati, undagi barxanlar, saksovulzorlar go'zalligiga oshno bo'lish, cho'pon-cho'liqlarning otarlarida, ular bilan birga yashash, qo'y, tuya boqish, qora qozonda ovqat pishirish, qumg'onda choy qaynatish kabi mahalliy aholining kundalik turmush tarzi bilan yashash, har bir xorijlik va mahalliy sayyohning diliga orom bag'ishlaydi.

Festival turizmi. Meloman sayyohlar dam olishning boshqa turi – festival turizmni tanlashadi. Jahon tajribasida festivallar bir necha kun, ko'pincha uch kun davom etadi va tadbirlar o'tuvchi hududlar va sahnalar atrofida kempinglar, treylerlar uchun avtoturargohlar paydo bo'ladi. Ispaniyada may oyining oxiri – iyunning boshlarida "Primavera", Buyuk Britaniyada iyun oxirida "Glastonberi", Vengriyada avgustda "Sziget", shuningdek, Braziliya va Venestian "Karnaval"lari, Pamplon "Enserro"larini



ko'plab turistlarni jalb qiluvchi festival turizmining yorqin namunalari sifatida sanab o'tish mumkin.

O'zbekiston va Buxoro viloyatida ko'plab shunday festivallar o'tkazib kelinmoqda va kelgusida yangi yo'nalishlarda tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, "Ipak va ziravorlar", "Sharq taronalari", "Qovun sayli", modalar haftaligi, hunarmandlar festivali kabilar vaqtida sayyohlar oqimining ortishini kuzatish mumkin. Ushbu festivallar davrida milliy urf-odatlarimizning jozibadorligini, ehtiromligini namoyish etish mumkin.

Gastronomik turizm. Milliy kulinariya va etnik restoranlar doimo mahalliy va xalqaro turistlarning e'tiborini tortib kelgan. Fransiyada – pishloq va vino, Italiyada – pitsa, Armanistonda – xash, Xitoy provinstiyalarida choyning xilma-xil navlari – Fustzyanda – ulun va qizil choy, Yunnanda – puera, Sichuanda – treking, yashil va sariq choy kabi mashhur gastronomik markazlar butun dunyoga ma'lum.

Mamlakatimizning boshqa mintaqalari kabi Buxoro viloyati ham o'zining gastronomik salohiyati bilan yaqin va uzoq xorij mamlakati sayyohlariga ma'qul bo'lmoqda. Misol tariqasida, Buxoroning sofi oshi, G'ijduvon shashligi va balaza sho'rvosi, Olot somsasi, Qorako'l pishirilgan baliqlari, G'ijduvon kulchasi-yu, Olot fatir-nonlari shular jumlasidandir. Bu borada "Milliy taomlar" festivalini tashkil etish istiqbolda ushbu yo'nalishdagi sayyohlar oqimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik turizm. Turizmning ushbu yo'nalishi jahoning ko'pgina hududlarida ancha rivojlangan bo'lsada, respublikamizda, jumladan, Buxoro viloyatida ushbu yo'nalishda foydalanmagan imkoniyatlar juda ko'p. Turizmning ushbu yo'nalishi bo'yicha dam oluvchilar tabiat bilan yolg'izlikda, yovvoyi hayvonlar bilan qo'shnichilikda, tabiatni his etgan holda, hordiq chiqarishni xoxlashadi. Xalqaro ekologik turistlar jamiyati ham tuzilgan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri – atrof-muhitni muhofazalashga foyda keltirish.



Viloyat hududida turizmning ushbu yo'nalishini rivojlantirish mumkin bo'lgan istiqbolli joylar sifatida "Jayron" ekologik markazi, "Qizilqum" qo'riqxonasi, Dengizko'l, Zamonbobo, Qoraqir tabiiy hududlarini sanab o'tamiz [6].

Karavaning. Turizmning ushbu turini 1930 yillarda amerikalik yangi ko'chib keluvchilar o'ylab topishgan. Ular aravalarda, karvonlar ko'rinishida o'z ko'ch-ko'ronini olib yurishgan. Bu yo'nalishdagi sayyohlar o'zlarini transport qatnovlari jadvallaridan xolisligi, barcha zarur ashyolarini o'zlari bilan olib yurish kabi qulaylikka egaligi bilan ajralib turishadi.

O'zbekistonda ham mahalliy sayyohlarning ko'pchiligi o'z avtomobillarida, karavaning yo'nalishida sayohat qilishadi. Buxoro viloyatida karavaning yo'nalishida turistik marshrutlarni To'dako'l, Zamonbobo, Qoraqir ko'llari bo'ylari, Quljuqtog' etaklari, Poykent, Varaxsha xarobalari, shuningdek, cho'l hududlarida tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Diniy turizm. Mazkur yo'nalishda dam oluvchilar avvalo o'zlarining ichki dunyosini oromlashtirishga, ruhiy tetiklashishga, fikr va tafakkurlarini barqarorlashtirishga intilishadi. Hindiston, Tailand, Indoneziya mamlakatlari, Tibet kabi hududlarga sayohat qiluvchilarning ko'pchiligi ushbu yo'nalish vakillari hisoblanishadi.

Respublikamiz viloyatlarida, jumladan Buxoro viloyati hududida ko'plab diniy ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar mavjud-ki, ulardan yilning barcha fasllarida turistlarning oqimi to'xtamaydi [4]. Buxoro viloyati va unga tutash hududlarda diniy turizmni istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari sifatida "Etti pir" turistik marshrut-majmuasiga kiruvchi ettita muqaddas qadamjolar, shuningdek Isoqbobo, Shibirdon ota, Qizbibi, Xo'ja Axbor Vali, Xo'ja Boyazid Bastomiy, Chorbakr qadamjo va ziyoratgohlarini ko'rsatish mumkin.

Davolash turizmi. Biror bir inson yo'q-ki, turizmning ushbu turidan umrida hech bo'lmasa, bir marta foydalanmagan bo'lsa. Shuning o'ziyoq, ushbu yo'nalishni



istiqbolli sifatida asoslab beradi. Xalqaro turizmga Kavkaz, Hindiston, Bolqon, Qora dengizbo'yi, Isroil, Tibet kabi davolash bo'yicha mashhur hududlarga yiliga millionlab sayyohlar tashrif buyurishadi. O'zbekistonning, shu bilan birga Buxoroning tabiati, iqlimi, yer-u suvi, giyohlari o'zining shifobaxshligi bilan dunyoga mashhur [7]. Buxoro viloyati tabiatida quyosh vannalari, qumli davolash, tuzli davolash, issiq suv buloqlarida, mineral suvda davolash, balchiqli davolash yo'nalishlarida imkoniyatlari mavjud va bu amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Buxoro shahridagi Sitorai-Moxi Xosa, Buxoro tumanidagi Issiqsuv sanatoriyalarida tartibli ravishda, zamonaviy shaklda foydalanilayotgan bo'lsa, Qorako'l, Romitan, Shofrikon, Peshku, Jondor, Olot tumanlaridagi issiq haroratli mineral suvlar, tuzli va qumli maskanlardagi rekreasiya resurslaridan tartibsiz va o'zboshimcha foydalanib kelinmoqda. Bunday istiqbolli rekreasiya maskanlarda belgilangan tartiblarda, sanitariya, gigiena talablariga javob beradigan shaklda foydalanish, ushbu hududlarga sayyoh va davolanuvchilarning oqimini ko'paytirishga xizmat qilishi bilan birga, ulardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Xuddi shunday industrial, bekpeker, rekords va boshqa shu kabi noan'anaviy turizm yo'nalishlarining qay biri bo'lmasin, tabiati va hududiy xususiyatlari takrorlanmas Buxoro viloyatida ularning barchasini zamonaviy darajada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Faqat ushbu yo'nalishlarda izlanishlarni olib borish va samarali mexanizmlarni ishga solish orqali Buxoro viloyatida turizmning noan'anaviy turlarini hamda an'anaviy turlarini istiqbolda rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Abduqodirov X. O'zbekiston turizmi: nazariy asoslar. –Toshkent, 2018. 45 b.



3. G'iyosov A. Buxoro viloyatining turistik salohiyati. –Buxoro, 2019. 78 b.
4. Kamolov J. Buxoro viloyati tarixiy obidalarining geografiyasi. –Buxoro, 2022. 35 b.
5. Mavlonov A.M. Buxoro viloyatida agroturizm va etnoturizmning rivojlanishi // Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Qarshi 2024- B 141-143
6. Mavlonov A.M. Cho'l mintaqasida ekoturizmni rivojlanishi va istiqbollari (Buxoro viloyati misolida) // Orol dengizi havzasida global iqlim o'zgarishlari sharoitida xalq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Nukus, 2024.- B. 237 -240.
7. Sadikov A. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun strategik yo'nalishlar. –Toshkent, 2017. 54 b.